



**2025 moliya yiliga
BIZNES-REJA**

KIRISH

"Toshkent" RFB AJ (bundan buyon matnda "Birja" deb yuritiladi) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan mazkur biznes-rejada Birjaning 2025 moliya yiliga mo'ljallangan asosiy rivojlanish yo'nalishlari va asosiy maqsadlari belgilab berilgan.

Ushbu biznes-rejani tuzish maqsadida Birjaning kuchli va zaif tomonlari tahlili, potentsial imkoniyatlar va tahdidlar tahlili o'tkazildi, bir qator qisqa muddatli taktik maqsadlar va vazifalar shakllantirildi hamda ularga erishish yo'llari belgilandi. Biznes-reja birjaning o'tgan davrlardagi ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati, fond bozorining joriy holati va rivojlanish istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi.

Mazkur biznes-rejani ishlab chiqishda fond birjasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, jumladan, "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlar hamda korporativ boshqaruv kodeksi qoidalarini inobatga olindi.

Biznes-rejada nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimli yondashuv bilan, shu jumladan Birja boshqaruvi tomonidan ushbu biznes-rejaning bajarilishini muntazam monitoring qilish, korporativ maslahatchi, ichki audit xizmati va Kuzatuv kengashi tomonidan nazorat qilish orqali ta'minlanadi.

BIRJA HAQIDA

"Toshkent" Respublika fond birjasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk himoyasini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 745-sonli Farmoniga muvofiq 1994-yil 8-aprelda tashkil etilgan. Birja faoliyati respublikada bozor va korporativ boshqaruv, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va siyosat bilan chambarchas bog'liq.

"Toshkent" RFB AJning vazifasi birja savdosi uchun sharoitlarni yaxshilash orqali respublika iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish va qayta qurishga

ko'maklashish, shuningdek, shu asosda investitsiyalar uchun qulay muhitni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishonchli, ochiq va innovatsion qimmatli qog'ozlar bozorini yaratishdan iborat.

Birja bozor hajmi va likvidligini oshirish maqsadida ochiq birja savdolarini tashkil etish va o'tkazish orqali qimmatli qog'ozlar bilan samarali savdo qilish uchun sharoit yaratishni maqsad qilgan. Bunga eng yangi texnologik infratuzilmani joriy etish va birja instrumentlari spektrini kengaytirish orqali erishiladi. Jamiyat faoliyati barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va barcha investorlar uchun jozibador investitsiya muhitini yaratishga ham qaratilgan.

Birja faoliyatining strategik yo'nalishlari:

- qimmatli qog'ozlarning birja savdosini o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni ishlashini ta'minlash;
- Birja infratuzilmasini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash;
- Birja instrumentlari ko'lamini kengaytirish;
- Bozorning shaffofligi va qulayligini oshirish;
- Tartibga soluvchi va normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash;

Birja aksiyadorlik jamiyati shaklida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Birja faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, kapital bozori sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAPITAL BOZORINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Kapital bozorining rivojlanishi uning ishtirokchilari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'tgan yillar davomida kapital bozorini rivojlantirish va davlat aksiya paketlarini xususiylashtirishga qaratilgan bir nechta Prezident farmonlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi kapital bozori o'sishi va yanada rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega. Birjaning istiqbolli rivojlanish yo'nalishini shakllantirishda kompleks yondashuvni qo'llash muhimdir.

2025-yilda Birja faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarga qaratiladi:

- Yangi moliyaviy vositalarni joriy etish;
- emitentlar sonini, shu jumladan davlat aktivlarini xususiyashtirish dasturini amalga oshirish hisobiga ko'paytirish;
- Qimmatli qog'ozlar likvidligini oshirish;
- Birja savdolariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish;
- Kapital bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan to'siqlarni bartaraf etish va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda biznes-rejada belgilangan chora-tadbirlarning sifatli bajarilishini ta'minlash uchun zarur qonunchilik bazasini ishlab chiqishga ko'maklashish.
- Investorlar bazasini, shu jumladan kapital bozori ishtirokchilarining malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta o'qitish tizimini yaratish, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kengaytirish.

BIRJA RIVOJLANISHINING 2025-YILGA MO'LJALLANGAN ASOSIY YO'NALISHLARI

Birja faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish

Emitentlar sonini ko'paytirish, yangi birja instrumentlarini yaratish, shuningdek qimmatli qog'ozlar likvidligini oshirish bo'yicha maqsadlarga erishish uchun Birja tomonidan muayyan choralar amalga oshiriladi.

Birja davlat kompaniyalari aksiya paketlarini ommaviy joylashtirish orqali ularni ommaviy sotish hisobiga birja kotirovkalash varag'idagi emitentlar sonini ko'paytirishga ko'maklashadi.

Elektron hujjat aylanishiga o'tish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston-2030"

strategiyasini amalga oshirish maqsadida Yagona portal - MyGov elektron davlat xizmatlari orqali Birjaning bir qator xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish rejalashtirilgan bo'lib, bu emitentlar va investorlar uchun xizmatlarning sifati va ommabopligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Portalda quyidagi xizmat turlari taqdim etiladi:

- Birjada listing tartib-taomilidan o'tish uchun ariza berish.
- Birja obligatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berish.
- Qimmatli qog'ozlarning joriy va tarixiy kotirovkalari to'g'risida ma'lumot olish.
- Qimmatli qog'ozlarni birja kotirovkalash varag'idagi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish (toifasi va kiritilgan sanasi ko'rsatilgan holda).
- Qimmatli qog'ozlarni ixtiyoriy delistingga ariza berish.

Ushbu tashabbuslarning joriy etilishi fond bozorini raqamlashtirishga, Birja mijozlari uchun jarayonlarni soddalashtirishga, shuningdek, Birjaning biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Xorijiy investorlar qiziqishining ortishi, shuningdek, ishonchli axborotga bo'lgan ehtiyojning o'sishini hisobga olgan holda, Birja tomonidan ishlab chiqiladigan tahliliy materiallarni monetizatsiya qilish imkoniyatini ko'rib chiqish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, birja kapital bozori ishtirokchilarining malakasini oshirish orqali investorlar, shu jumladan chakana investorlar bazasini kengaytirishga ko'maklashish niyatida.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish nafaqat kapital bozorining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida, balki jamiyat taraqqiyoti jarayonida ham muhim rol o'ynaydi.

Moliya, shaxsiy jamg'armalar va ularni boshqarish usullari bo'yicha bilim darajasini oshirish shaxsiy byudjetni - aholining shaxsiy daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish va boshqarishda yordam beradi, shuningdek, turli xil firibgarlarning faoliyati

bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, aholi o'rtasida kapital bozoriga bo'lgan ishonch ortadi, shuningdek, potensial investorlar bazasi asta-sekin kengayib boradi, kompaniyalar kapital bozorini bank sektoriga muqobil yo'nalish sifatida ko'ra boshlaydilar.

Bu borada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Emitentlar sonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2024 yildagi PQ-162-son qarori bilan aksiyalari mahalliy fond bozorida birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif qilish orqali sotilishi lozim bo'lgan 12 ta aksiyadorlik jamiyatining ro'yxati tasdiqlandi. Shundan kelib chiqib, bozordagi umumiy vaziyatdan hisobga olgan holda, Birja 2025-yilda 15 ta yangi emitentning qimmatli qog'ozlarini birja kotirovkalash varag'iga kirishini kutmoqda.

Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish

Birjaning korporativ boshqaruv tizimi faoliyat samaradorligini yanada oshirish, aksiyadorlar huquqlariga rioya qilish, bo'linmalar o'rtasida vakolatlar va javobgarlikni aniq taqsimlash, shaffof dividend siyosati, aksiyadorlar uchun axborot ochiqligi, samarali ichki nazorat va ichki audit tizimlarining mavjud bo'lishi maqsadida ishlab chiqilgan.

Ijro etuvchi organ tomonidan Korporativ boshqaruv kodeksi me'yorlariga rioya qilish tegishli boshqaruvni, shu jumladan hisobdorlik, shaffoflik, ishonchlilik, yuqori ma'naviy-axloqiy tamoyillarga rioya qilish va uzoq muddatli istiqbolda Birjaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Birjaning malakali xodimlari tomonidan kamchiliklarni bartaraf etish va korporativ boshqaruv tizimi darajasini oshirish bo'yicha doimiy ishlar olib borilmoqda.

Investitsiya faoliyati

Daromad manbalarini diversifikatsiyalash maqsadida mavjud bo'sh pul mablag'larini bank depozit

omonatlari va obligatsiyalari kabi yuqori likvidli moliyaviy vositalarga joylashtirish taklif etiladi.

Marketing strategiyasi

2025-yilda Birjaning tanilishini oshirishga, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish

O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari kengayishi va milliy kapital bozorining global bozorlar bilan integratsiyalashuvi istiqbollarini hisobga olgan holda, xalqaro munosabatlarni rivojlantirish Birja uchun o'z faoliyatini yanada rivojlantirish borasida strategik jihatdan muhim yo'nalish hisoblanadi.

Kadrlar bilan to'ldirishni takomillashtirish


Birjaning malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash va xodimlarning kasbiy darajasini oshirish maqsadida 2025-yilda quyidagi ishlar davom ettiriladi:

- malakali mutaxassislarni jalb etish (izlash va tanlash) va olib qilish;
- bo'lajak bitiruvchilar orasidan yosh mutaxassislarni tanlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;
- yangi xodimlarni moslashtirish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish;
- xodimlarni baholash, xodimlarning ichki harakati va martabalarini boshqarish usullarini takomillashtirish;
- kadrlar zaxirasini shakllantirish;
- Birja xodimlarining malakasini oshirish.

2025-yil uchun moliyaviy ko'rsatkichlar prognozi

Kutilayotgan daromad manbalari:

- Birjada savdolarini tashkil etish uchun vositachilik haqlaridan olingan daromadlar;
- Listing to'lovlari;
- Bush turgan binolarni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- Investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar.

Moliyaviy natijalar prognozi (mln so'm)


Ushbu material "Toshkent" RFB AJ xodimlari tomonidan faqat tanishish maqsadida tayyorlangan. Ushbu materialda keltirilgan ma'lumotlar uning har qanday foydalanuvchisi tomonidan investitsiya yoki boshqa qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi.